BOYOVUT TUMAN AHOLISI VA MANZILGOHLARINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Egamqulov Husniddin Erkaboyevich - Guliston davlat universiteti "Ekologiya va geografiya" kafedrasi katta o'qituvchisi, g.f.f.d. (PhD)
e-mail: husniddinguldu93@gmail.com

Sirdaryo viloyat hududiy birliklari ichida Boyovut tumani aholi soni eng ko'p, asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib beradigan, kasallanish yuqori, mahalliy Bekobod shamolining yo'nalishida joylashgan, sug'orish tizimi bilan yaxshi taminlangan, ichimlik suvi bilan taminlanganlik darajasi biroz past bo'lgan ma'muriy birlik hisoblanadi.

Tuman nozoekologik holatini baholashda tibbiy demografik holati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boyovut tumani viloyatdagi eng ko'p aholiga ega ma'muriy birlik hisoblanadi. Aholisi 2023-yil holatiga ko'ra 134 100 kishini, tashkil qiladi. Milliy tarkibiga ko'ra Boyovut tumanida asosan, o'zbeklar, rus, tojik, tatar va boshqa millat vakillari ham istiqomat qiladi. 1 km² maydonga o'rtacha 251,9 kishi to'g'i keladi. Tuman aholisi zichligiga ko'ra viloyat ko'rsatkichidan 1,2 barobar zich hisoblanadi. 2021-yil holatiga ko'ra shaharda 29,2 ming kishi, qishloq aholisi 102,5 ming kishini tashkil qiladi. Boyovut tumanining urbanizatsiya darajasi 22,1 foizni tashkil qiladi [1].

2023-yilning holatiga ko'ra, Boyovut tumanida tug'ilganlar soni 3389 kishini tashkil qildi va 2010-yilning shu davriga (2446 kishi) nisbatan 943 kishiga ko'p tug'ilgan (1-jadval).

1-jadval

Boyovut tumanining ayrim ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar nomi	2010	2023	O'zgarishlar indeksi
1	Aholi zichligi (1 kv.km)	207,3	253,2	+1,2
2	Aholi soni (ming kishi)	107,8	131.7	+1,2
3	Shaharda yashovchilar (ming kishi)	23,9	31,1	+1,3
4	Qishloqda yashovchilar (ming kishi)	83,9	105,3	+1,2

Jadval Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi malumotlari asosida tuzilgan

Tug'ilish koeffitsiyenti mos ravishda 24,8 promilleni tashkil qildi va 2010-yilning shu davriga (22,6 promille) nisbatan 2,2 promillega ko'paygan. Tug'ilish darajasining Boyovut tumanida (22,6 dan 24,8 promille)ga ko'payganligi kuzatildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida Boyovut tumani bo'yicha ko'chib kelganlar soni 300 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 589

kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 289 kishiga (2021-yilning shu davriga nisbatan minus 335 kishi) teng bo'ldi.

Bundan ko'rinib turibdiki, aholi sonining yillar davomida o'sishi ishsizlik darajasining ortishiga sabab bo'luvchi omillardan biridir. Ishsizlik darajasining o'sishi o'z navbatida aholining turmush sifati va darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, kelgusida aholi turmush sharoiti va salomatligi bilan bog'liq muammolarning yuzaga keltirishi mumkin.

Boyovut tumanida jami oilalar soni 33735 nafar, 18 yoshdan kichik bolali oilalar soni 11933 nafar, ko'p bolali oilalar soni (4 bola va undan ko'p) 3569 nafar, to'liq bo'lmagan oilalar soni (otasi yoki onasi yo'q oilalar) 686 nafar, nogironligi bo'lgan shaxslar bor oilalar soni 1762 nafar, jiddiy surunkali kasalliklarga chalingan oila a'zolari bor oilalar soni 582 nafar, bir o'zi yashaydigan qariyalar soni (65 yosh va undan kattalar) 42 nafar, oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan oilalar soni 1161 nafar, xorijga ishlash uchun ketgan oila a'zolari bor oilalar soni 3090 nafarni tashkil qiladi. Binobarin jami oilalarning 9,1 foizi xorijda mehnat faoliyatini olib borayotgan oila a'zolari borlar hisoblanadi [2].

Boyovut tumanida aholi salomatligini mustahkamlash, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatadigan 14 ta Ko'p tarmoqli markaziy poliklinika, Oilaviy poliklinika va Oilaviy shifokorlik punkiti faoliyat yurib kelmoqda. KTMPga 18549 kishi biriktirilgan. Boyovut tumanida qamrovi bo'yicha eng katta tibbiyot muassasasi xisoblanadi. Kunlik qamrovi o'rtacha 200 kishini tashkil qiladi. Bemorlar qamrovi bo'yicha OShP eng kam bo'lib kunlik 50 kishini tashkil qiladi. Viloyat hududida aholi salomatligi bilan bog'liq kasalliklar soni Boyovut tumanida biroz bo'lsa ham ko'proq tarqalgan. Boyovut tumanida asosan nafas olish a'zolari kasalligi ko'proq uchraydi.

2-jadval.

Boyovut tumani sog'liqni saqlash birlashmalariga tegishli umumiy o'lim va kasallanish holatlari

№	OShP, OP, KTMP nomi	MFY nomi	Biriktirilgan MFY soni	Har bir MFYga to'g'ri keladigan aholi soni (kishi)	KTMP, OP, OShPga to'g'ri keladigan aholi	Jami aholi kasallanishi (kishi)	Kasalliklar bo'yicha o'limlar soni
1	K T M P (ko'p tarmoqldi markaziy poliklinika)	Ijodkor MFY	7	3128	18549	7500	109
		Sohil MFY		2550			
		Beruniy MFY		2213			
		Olmazor MFY		3501			
		Madaniyat MFY		3023			
		Uchturgon MFY		2995			
		Sovotobod MFY		1139			
2		Markaz MFY	5	3536	17072	13744	101

	1-sonli OP(oilaviy poliklinika)	Istiqlol MFY		4478			
		Muqumiy MFY		3148			
		Boboyurt MFY		3917			
		Ozodlik MFY		1993			
3	2-sonli OP	Do'stlik MFY	3	4990	11835	6433	61
		S.Ayniy MFY		4050			
		A.Temur MFY		2795			
4	3-sonli OP	Anorzor MFY	4	5071	16571	11009	69
		Bekat MFY		3400			
		Qarapchi MFY		3600			
		Yangiavlod MFY		4500			
5	4-sonli OP	A.Navoiy MFY	3	4700	12915	7242	38
		Sarmich MFY		3905			
		Jo'langar MFY		4310			
6	5-sonli O P	Mirishkor MFY	3	4710	10790	6078	57
		Xosilobod MFY		3020			
		Bunyodkor MFY		3060			
7	6-sonli O P	Farhod MFY	4	2538	11297	7801	40
		Navro'z MFY		3005			
		Ma'naviyat MFY		2830			
		Navbahor MFY		2924			
8	7-sonli O P	O'zbekiston MFY	4	2570	10205	3079	46
		Gulbog' MFY		2546			
		Iftixor MFY		5089			
9	Bo'ston OShP*	Yangibo'ston MFY	1	3936	3936	1115	16
10	G'alaba OShP	Yangobod MFY	1	3845	3845	1397	9
11	Do'stlik OShP	Ziyokor MFY	1	4870	4870	1570	37
12	N.Maxmudov OShP	Tinchlik MFY	1	2085	2085	1558	7
13	Sh.Rashidov OShP	Laylakko'l MFY	1	3584	3584	1072	10
14	1-Boyovut 9-bo'lim OShP	Paxtakor MFY	1	1949	1949	904	17

Jadval. Statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi [3].

Boyovut tumani aholisi manzilgohlarida ham hududiy geografik farqlar aniq namoyon bo'ladi. Aholisi asosan katta yo'l bo'ylarida, sanoat mavjud hududlarda zich joylashgan. Boyovut tuman hududining relyefi janubi-sharqdan shimoli-g'arb tomon pasayib boradi. Boyovut tumani aholi manzilgohlari dengiz sathidan balandligi turlicha joylashgan, ammo farqlar sezilarli darajada katta emas (3-jadval).

3-jadval

Boyovut tumani aholi punktlarining dengiz sathidan balandligi (m) hisobida

№	Aholi punktlari	Dengiz sathidan balandligi (m hisobida)	№	Aholi punktlari	Dengiz sathidan balandligi (m hisobida)

1	Qarabchi	275	26	Olmazor	303,7
2	Bekat	275	27	Boyovut	315,5
3	Qahramon	275,9	28	Madaniyat	309,7
4	Dehqonobod	273,1	29	Mingchinor	306,6
5	Xolmurodov	273,2	30	Sarmich	308,9
6	Laylakko'l	275,6	31	Shirin	313,6
7	Haydarov	275,7	32	Bunyodkor	279,2
8	Yusufobod	274	33	Sangzor	280
9	H Olimjon	279,9	34	Do'stlik	285,8
10	Usmonobod	281,6	35	Tojikovul	285,6
11	Yangiobod	282,2	36	Sobirobod	291
12	Darvozakir	282,3	37	Amir Temur	295
13	Mirishkor	286,5	38	Do'stlarobod	285,3
14	Yuqori Ovul	286,6	39	Yangi Bo'ston	283,4
15	Ijodkor	287,2	40	Paxtakor	285,4
16	Navbahor	299,2	41	O'zbekiston	289,3
17	Tomirli	299,8	42	Yo'ldoshobod	294
18	Do'stlik	292,4	43	Iftihor	296,8
19	Mingterak	304	44	Ozodlik	285
20	Chashma	310,9	45	Tabor	281,4
21	Xalqaobod	301,4	46	Markaz	288,4
22	Tinchlik	300	47	Mo'minobod	290
23	Savotobod	311,9	48	Muqimiy	293,5
24	Oxunboboyev	311,5	49	Qoraqishloq	285
25	Usmon Nosir	303,3	50	Bolg'ali	291,6

Jadval. Statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi [4].

Boyovut tuman hududida joylashgan aholi punktlarining dengiz sathidan eng baland hududi 315 metrni tashkil qilsa, dengiz sathidan eng past aholi punkiti 274 metrga to'g'ri keladi. Boyovut tumanida 40 ga yaqin Mahalla Fuqarolar Yig'ini mavjud bo'lib ularning tarkibida 50 dan ortiq aholi manzilgohlari mavjud. Umuman olganda Boyovut tumani aholi soni bo'yicha viloyatda o'ziga hos o'rin egallab, zichligi eng yuqori, aholi soni eng ko'p ma'muriy birlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Egamqulov H.E. Sirdaryo viloyatining nozoekologik vaziyati va aholi salomatligining hududiy xususiyatlari (Boyovut tumani misolida). Doktorlik dissertatsiya (PhD) Samarqand-2024. 110-120-b.

2. Karshibayeva L.K., Egamqulov H.E. Sirdaryo viloyati geografiyasi. Darslik.T-2024. 154-157 b.

3. Egamkulov H.E. Nosoecological situation and geographical differences in the incidence of the population (on the example of Bayaut district). Экономика и социум, (12-2 (103)), 2022. – P. 26-34.

4. Sirstat.uz